

Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihamalar mavzusi

| № | Amaliy loyiha mavzusi | “Tarix va arxeologiya fanlari” yo‘nalishi |
|---|--|--|
| | | Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija |
| | <p>Jadidlar tarixiga oid yangi manbalarni tadqiq etish orqali “Jadidlar.uz” platformasini ilmiy, badiiy, matbuot va audiovizual mahsulotlar bilan to‘ldirish</p>  | <p>Tadqiqotning shakli: Jadidlar tarixiga oid yangi manbalarni tadqiq etish orqali “Jadidlar.uz” platformasini ilmiy, badiiy, matbuot va audiovizual mahsulotlar bilan to‘ldirish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - platformaning ingliz tilidagisini ham tayyorlash orqali Jadidchilik milliy harakati haqida butun dunyoga axborot tarqatish imkonini tug‘iladi; - platforma jadidlarning til-imlo masalalaridan tashqari, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy, ilmiy mazmundagi asarlari bilan to‘ldiriladi; - chet ellarda saqlanayotgan, jadidlarga oid manbalar aniqlanadi, ro‘yxati tuziladi, raqamlashtirilib, platformaga kiritiladi; - Jadidchilik milliy harakatiga oid birlamchi yozma asarlar, arxiv hujjatlari, matbuot, og‘zaki va boshqa turdagи manbalar negizida yangi tadqiqotlar bajariladi va nashr qilinadi; - Jadidlarning sun‘iy zehn asosida tayyorlangan o‘zsuratlari taqdim etiladi. <p>Natjalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Fanlar akademiyasi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi.</p> <p>Ilmiy natjalarni chop etish: Tadqiqot natjalalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p> <p>Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari</p> |

*Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart

Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihamalar mavzusi

“Tarix va arxeologiya fanlari” yo‘nalishi

| Nº | Amaliy loyiha mavzusi | Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija |
|----|---|---|
| | <p>O‘zbekiston SSR da siyosiy qatag‘on qurbanlari (oz sonli millatlar va xorijliklar) elektron ensiklopediyasini yaratish</p>  | <p>Tadqiqotning shakli: O‘zbekiston SSR da siyosiy qatag‘on qurbanlari (oz sonli millatlar va xorijliklar) elektron ensiklopediyasini yaratish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ilgari ilmiy tadqiqotlarga kiritilmagan O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizligi arxivi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti adminstratsiyasi arxivi, O‘zbekiston Milliy arxivlari va viloyat, tuman, shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi hamda chet ellardagi tegishli arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar tadqiq etiladi; - O‘zbekiston SSR va Qoraqalpog‘iston ASSRda amalga oshirilgan qatag‘on siyosati natijasida qurban bo‘lgan oz sonli millat vakillari va xorijliklar o‘rganilib, ularning hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlar jamlanadi, birlamchi manbalarning nusxalari olinib, hujjatlar ombori shakllantiriladi; - Respublika va xorij arxiv, kutubxona va muzeylaridan jamlangan ma’lumotlar asosida “katta qirg‘in” siyosatida qurban bo‘lgan oz sonli millat vakillari va xorijliklarning elektron ro‘yxati tuziladi, ushbu elektron ro‘yxat hamda ular haqidagi ma’lumotlar muzey-xotira.uz saytiga, Qatag‘on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi va viloyatlardagi qatag‘on qurbanlari muzeyi hududiy bo‘limmalarining infokioskiga joylashtiriladi; - izlanishlar natijasida to‘plangan materiallar ilmiy tahlil qilinib, ular asosida siyosiy qatag‘on qurban bo‘lgan oz sonli millat vakillarining ro‘yxati shakllantiriladi. Shuningdek, har bir qatag‘on qurbanining hayoti va qatag‘on qilinishi haqida bat afsil ma’lumot beradigan “O‘zbekiston SSRda 1937 – 1938 yillardagi qatag‘on (oz sonli millatlar va xorijliklar)” nomli ensiklopediya nashrga tayyorlanadi; - 1937 – 1938 yillar etnik qatag‘onlarni yo‘q qilishga qaratilgan buyruq, memorandum va direktivalar asosida hududlarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli etnik tozalash operatsiyalari qurbanlarining hayoti, faoliyati va qismatiga bag‘ishlangan “O‘zbekiston SSRda siyosiy qatag‘on: oz sonli millatlar va xorijliklar” nomli ilmiy-izohli arxiv hujjatlari to‘plami nashrga tayyorlanadi. <p>Natjalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalarini Qatag‘on qurbanlari xotirasi muzeysi sinovdan o‘tkaziladi.</p> <p>Ilmiy natjalarni chop etish: Tadqiqot natjalalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p> |

Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart**